

Oriental Journal of Education



STATISTICS OF THE POPULATION EVACUATED TO THE UZBEK SSR IN 1941–1942

Nurali Nurmatov*Doctoral Candidate**Shahrisabz State Pedagogical Institute**Shahrisabz, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Council for Evacuation, Resolution No. 187, organized population, refugees, Galina Borisovna Gurevich, Registration and Information Bureau, 734980 persons, Levshin.

Abstract: The article provides a statistical overview of the evacuation process in 1941–1942. It analyzes the uncertainties and difficulties encountered during the evacuation.

Received: 04.12.25**Accepted:** 05.12.25**Published:** 06.12.25

1941–1942-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSRGA EVAKUATSIYA QILINGAN AHOLI STATISTIKASI

Nurali Nurmatov*Tayanch doktoranti**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Shahrisabz, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Evakuatsiya kengashi, 187-son qaror, tashkillashtirilgan, qochqinlar, Guriyevich Galina Borisovna, Hisob-ma’lumot byurosi, 734 980 kishi, Levshin.

Annotatsiya: Maqola 1941-1942-yillardagi evakuatsiya jarayonini statistik jihatdan yoritadi. Evakuatsiya jarayonidagi noaniqlik va qiyinchiliklarni tahlil qiladi.

СТАТИСТИКА ЭВАКУИРОВАННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКСКУЮ ССР В 1941–1942 ГОДАХ

Нурали Нурматов*Докторант**Шахрисабз государственный педагогический институт**Шахрисабз, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Эвакуационный совет, постановление №187, организованная эвакуация, беженцы, Гурьевич Галина

Аннотация: В статье статистически освещается процесс эвакуации в 1941–1942 годах. Анализируются неопределённости и

Kirish. Evakuatsiya jarayonini o'rganish nafaqat tarixiy faktlarni qayta tiklash, balki o'zbek xalqining urush yillarida namoyon etgan bag'rikengligi, birdamligi va insonparvarlik an'alarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi. Arxiv hujjatlari orqali olingan statistik ma'lumotlar - oilalar soni, millatlar tarkibi, yosh kategoriyalari va hududlar bo'yicha taqsimot - o'sha davrning ijtimoiy demografik manzarasini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston SSRga ko'chirilgan aholi statistikasi va evakuatsiya jarayonining ijtimoiy mohiyatini arxiv manbalari asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot vazifalari sifatida evakuatsiya siyosatining mazmunini aniqlash, O'zbekiston hududiga joylashtirilgan aholi ko'rsatkichlarini statistik jihatdan ko'rib chiqish, shuningdek, urush yillaridagi millatlararo hamjihatlikning ahamiyatini ochib berish belgilab olingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqida amalaga oshirilgan evakuatsiya jarayonlarini X. Babajonov, M.P. Belenko, I.I. Belonosov. V.A.Isupov, Rebekka Manley va boshqa ko'plab tadqiqotchilar o'rganishgan.

Tadqiqot va natijalar. Evakuatsiya jarayonining 1941-1942-yillardagi holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ba'zi noaniqliklarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, evakuatsiya qilingan tinch aholi soni ham bugungi kunda aniq bir statistik raqamga ega emas: chop etilgan ma'lumotlar bir-biridan keskin farq qiladi. I. I. Belonosovning "1941–1942-yillarda front yaqinidan aholini evakuatsiya qilish" [12] nomli maqolasida evakuatsiya ko'lamini bundan ham katta - 25 million kishi bo'lganini ta'kidlaydi, biroq Belonosov o'z maqolasida evakuatsiya qilinganlarni ikki guruhga - uzoq hududlarga ko'chirilganlar va front chizig'idan bir necha o'n kilometr nariga vaqtincha olib chiqilganlarga ajratmagan.

Evakuatsiya qilinganlar soniga oid ma'lumotlarning qarama-qarshi bo'lishiga ko'plab omillar sabab bo'lgan, ulardan eng asosiysi - statistik ma'lumotlarning ishonchlilik darajasining pastligidir [11.81-bet]. Ushbu muammoning yechimlaridan biri sifatida alohida hududlar bo'yicha arxiv hujjatlari majmuasini o'rganish va olingan natijalarni umimlashtirish mumkin.

Urush boshlanganidan uchinchi kuni - 1941-yil 24-iyunda VKP(b) MK va SSSR XKSning qarori bilan aholini, muassasalarni, harbiy va boshqa yuklarni, korxonalarning uskuna va jihozlarini hamda boshqa qiymatlarni evakuatsiya qilishni boshqarish uchun SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzurida Evakuatsiya kengashi tashkil etildi. 1941-yil 16-iyulda GKOning 173-sonli qarori bilan Evakuatsiya bo'yicha Kengash quyidagi tarkibda tasdiqlandi: Shvernik N.M. (Kengash raisi), Kosigin A.N. (rais o'rinbosari), Pervuxin M.G. (rais o'rinbosari), Mikoyan A.I., Kaganovich L.M. (keyinchalik A. Arutyunov bilan almashtirilgan), Saburov M.Z. (keyinchalik G.P.

Kosyachenko bilan almashtirilgan), Abakumov V.S. (NKVD)[13.152-bet]. Keyingi davrlarda Kengash tarkibi bir necha bor o'zgartirildi.

1941-yil 26-sentabrda esa Evakuatsiya kengashi huzurida Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi tuzildi; unga SSSR XKS huzuridagi sobiq Ko'chirish boshqarmasining butun apparati o'tkazildi.

Ushbu boshqarmaning vazifasi evakuatsiya jarayonida va evakuatsiya joylariga yetib kelgandan so'ng aholining ehtiyojlarini hisobga olish va ularni zarur vositalar bilan ta'minlashdan iborat edi. Hududlarda dastlab evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish va ularni yashash sharoitlari bilan ta'minlash bo'yicha vazifalar allaqachon mavjud bo'lgan partiya va sovet boshqaruv organlariga - VKP(b) viloyat va shahar komitetlariga, viloyat va shahar ijroqo'miga - yuklatildi. Shundan so'ng, 1941-yilning yoz oxiri – kuz boshlarida kelayotgan aholini ro'yxatga olish, ularni joylashtirish va ta'minlash bilan shug'ullanuvchi birinchi maxsus organlar shakllana boshladi. Odatda buning uchun kollegial organlar tuzilgan, ba'zan esa bitta maxsus vakil tayinlangan.

Ushbu organlarga tegishli huquqiy qarorlar loyihalarini tayyorlash vazifasi yuklangan. Shuningdek, ular evakuatsiya punktlarini tashkil etish, ularni xodimlar bilan ta'minlash, evakuatsiya qilinganlarning yashash va mehnat sharoitlarini yo'lga qo'yish kabi kundalik ishlar bilan shug'ullangan. Shaharlarda ham, qishloqlarda ham evakuatsiya jarayonini tashkil etish sxemasi bir xil bo'lgan: mas'ul shaxs tayinlangan yoki "uchlik" (troyka) tuzilgan, yoki ijroqo'm bu masalalarni ish tartibida hal qilgan. Bu bosqichda yagona standart tizim mavjud bo'lmagan.

Evakuatsiya kengashining 1941-yil 14-noyabrdagi 187-sonli qarori bilan Evakuatsiya boshqarmasi vakillarining ittifoq respublikalari, ayrim o'lkalar va viloyatlardagi apparat shtatlari tasdiqlandi[6.37-bet]. Ushbu qarorga ko'ra, Evakuatsiya bo'yicha Kengash huzuridagi Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi quyidagi vazifalarni bajarar edi:

- a) frontga yaqin hududlardan aholining evakuatsiyasini tashkil etish;
- b) evakuatsiya qilinayotgan aholiga yo'l davomida xizmat ko'rsatish;
- v) evakuatsiya qilingan aholining qabul qilinishi, joylashtirilishi va ishga joylashtirilishini ta'minlash [5. 50-54-varaq].

Arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, ushbu apparatning tashkil etilishi kechikish bilan amalga oshirilgan va O'zbekiston hukumati Evakuatsiya bo'yicha vakilni yuborishni o'zi talab qilgan. Masalan, 1941-yil 2-noyabrdagi telegrammada O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi A. Abdurahmonov Evakuatsiya bo'yicha Kengash raisi N. M. Shvernikka quyidagicha murojaat qilgan: «O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari o'rtasida evakuatsiya qilinganlarni teng taqsimlash, shuningdek, ularni tashish bilan bog'liq barcha masalalarni joyida hal etish maqsadida, Toshkentga evakuatsiya qilinganlarni O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari o'rtasida

taqsimlash vakolatiga ega bo'lgan sizning vakilingizni yuborish maqsadga muvofiq bo'lardi», - deb yozgan [4. 213-varaq]. Bu masala tez fursatda hal qilindi va allaqachon 1941-yil 15-noyabrda O'zbekiston SSR bo'yicha Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi vakilining 1942-yil uchun shtat jadvali tasdiqlandi.

O'zbekiston SSR aholini Evakuatsiya qilish boshqarmasi huzuridagi Hisob-ma'lumot bo'limi hodimlari ro'yxati[1. 5-varaq]:

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Doimiy shtat				
		Lavozimi	Tug'ilgan yili	Oylik stavka	Ish boshlagan vaqti	Davlat zayomiga yozilgan summa
1	Guriyevich G. B	rahbar	1911	600	18.11.1941	760
2	Suslov G. I	Katta statistik	1898	500	14.02.1942	570
3	Gurtovskaya O. S	Katta statistik	1906	500	16.09.1941	570
4	Yavorskaya A.P	Statistik	1908	400	9.10.1941	380
5	Aksenova S.V	Statistik	1923	350	28.01.1942	495

Guriyevich Galina Borisovna Chernigov viloyati Gorodnya shahrida 1911-yilda tug'ilgan. 1941-yil 22-iyun yashash joyi Moskvada bo'lgan. Suslov Grigoriy Ivanovich esa Samarqand shahrida 1898-yil tug'ilgan. U ham urush boshlanganda Moskvada bo'lgan[1. 8-varaq].

Evakuatsiya qilingan aholini uyma-uy va ro'yxat asosida hisobga olish ishlarini amalga oshirish uchun ajratilgan Hisob-Ma'lumot byurosi xodimlari[1. 12-varaq]:

№	Familiya, ism	№	Familiya, ism	№	Familiya, ism
1	Grunt R.S.	11	Polyakova O.N.	21	Pugayeva E.M.
2	Aksenova S.A.	12	Grigoriyeva M.I.	22	Akopova F.SH.
3	Kellerman E.S.	13	Ayzenberg R.B.	23	Malenko
4	Martinov K.B.	14	Moldavskaya R.Z.	24	Diordiyeva V.I.
5	Osipova N.M.	15	Roytian E.D.	25	Tatarenko
6	Zalsman A.F.	16	Porova V.I.	26	Zalsman L.F.
7	Ulman N.I.	17	Isxanbayeva E.P.	27	Karbasheva
8	Belova R.V.	18	Kopitina L.I.	28	Shibkova A.S.

9	Feygena A.S.	19	Kopitina D.I.	29	Safranova
10	Semenova V.I.	20	Albaum N.I.	30	Aleksiyeva

O‘zbekiston SSR NKVD boshqarmasining Hisob-Ma’lumot byurosi xodimlari ro‘yxati, 1942-yil 21-may holatiga ko‘ra[1. 43-varaq]:

№	Familiya, ism	№	Familiya, ism	№	Familiya, ism
1	Gureyevich G.B.	11	Grikit-Melenevskaya N.P.	21	Kadirova Z.A.
2	Suslov G.I.	12	Pomeransheva F.	22	Mordis
3	Gurtovskaya O.S.	13	Gershman T.X.	23	Chernyak
4	Shklyar M.B.	14	Kachina Yu.B.	24	Magusheva
5	Pavlenko E.A.	15	Arbadjani M.B.	25	Komarova N
6	Gladkovskaya O.Ya.	16	Alekseyeva M.N.	26	Ulman
7	Chapligina N.M.	17	Gorodetskaya K.N.	27	Zavodovskaya
8	Yavorskaya A.P.	18	Livshits D.M.	28	Klesheva
9	Polyakova E.E.	19	Belova R.B.	29	Imasheva
10	Tixonova Z.B.	20	Ugryumova O.V.	30	Jagot-Miller
				31	Sergeyeva

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 1941-yil 15-sentabr holatiga ko‘ra O‘zbekiston SSR hududida 50 mingdan ortiq evakuatsiya qilingan aholi qayd etilgan. Bunday ko‘p miqdordagi ko‘chirib keltirilganlar uchun ro‘yxat kitoblari foydalanishda noqulay hisoblanardi. Shu sababli, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Ko‘chirish bo‘limi ma’lumotnoma ishlarini olib borish uchun kartotekani tashkil etadi[2. 16-varaq].

Endi “evakuatsiya qilingan tinch aholi” atamasi bilan qaysi ijtimoiy guruhlar nazarda tutilganini aniqlash lozim. Urush migratsiya miqyosiga va xarakteriga keskin ta’sir ko‘rsatdi, biroq ko‘chirib o‘tkazilganlarning barchasi hatto frontoldi hududlaridan olib ketilganlar ham evakuatsiya qilinganlar maqomiga ega bo‘lmagan. Chunki evakuatsiya qilingan maqomi bir qator imtiyozlarni nazarda tutardi: moddiy yordam olish huquqi, ishga joylashishda ustuvorlik va boshqalar. Shu sababli bu maqom qat’iy tartib asosida berilgan.

Harbiy xizmatchilar - uzoq hududlarga ko‘chirilgan harbiy gospital xodimlari, kursantlar va harbiy o‘quv yurtlari tinglovchilari evakuatsiya qilinganlar toifasiga kirmagan, biroq ularning oilalari bu maqomni olgan. Sharqiy hududlarga ko‘chirilgan qamoqxona va mehnat koloniyalari mahbuslari, ozod qilingan yoki amnistiya qilinganlar evakuatsiya qilingan sifatida qayd etilgan, ammo ularga imtiyozlar berilmagan. O‘z navbatida, sharqiy hududlarga ko‘chirilgan polyaklar va deportatsiya qilingan xalqlar evakuatsiya qilingan maqomini olmagan.

Biroq evakuatsiya jarayonining tashkil etilishi nuqtai nazaridan qaraganda, evakuatsiya qilingan aholining ikki guruhga bo'linishi to'g'riroq bo'ladi: "tashkillashtirilgan aholi" va "qochqinlar". Birinchi guruhga turli tashkilot va muassasalarning ishchilari hamda xizmatchilari kiradi; ular mamlakatning orqa hududlariga rejalashtirilgan evakuatsiya doirasida ko'chirilgan. Ularning ko'chirilishi Evakuatsiya kengashida rejalashtirilgan, so'ngra tegishli xalq komissarliklari o'z korxonalari va xodimlarining evakuatsiyasini tashkil etgan[17].

"Qochqinlar" esa ikki toifani o'z ichiga oladi:

- o'z yashash joyini mustaqil ravishda tark etgan aholi;
- shuningdek, harbiy-siyosiy sabablarga ko'ra - ixtiyoriy yoki majburan - yirik shaharlardan, birinchi navbatda Moskva va Leningraddan ko'chgan tinch aholi.

Bu ikki guruh o'rtasidagi asosiy farq - ko'chirishning maqsadi bilan izohlanadi: tashkillashtirilgan aholi evakuatsiya qilingan korxonalar ortidan ko'chirilgan bo'lsa, qochqinlar yirik shaharlardagi "ortiqcha" aholining sonini kamaytirish uchun olib chiqilgan[17].

Jarayonning bunday tashkil etilishi biz uchun bir qator muhim oqibatlarni keltirib chiqargan[17]:

1. "Tashkillashtirilgan" evakuatsiya qilingan aholi asosan shahar aholi punktlariga joylashtirilgan (o'z korxonalari va muassasalari bilan birga).

2. Ularning hisobga olinishi ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan, chunki bu guruhning ko'chirilishi ko'p sonli davlat organlari tomonidan nazorat qilingan.

Hududning muhim xususiyatlaridan biri - transport yo'llarining konfiguratsiyasi edi. Agar Sibirga evakuatsiya deyarli to'liq Transsibir temir yo'lga tayanib amalga oshirilgan bo'lsa, Markaziy Osiyoga bir necha yo'llar orqali yetib borish mumkin edi.

Birinchi yo'nalish - Samaradan (o'sha paytda Kuybishev) Orenburg temir yo'li orqali Aqtobe (Aktyubinsk), Qizilo'rda orqali Chimkentga olib borar edi.

Ikkinchi yo'nalish - Novosibirskgacha temir yo'l orqali borib, u yerdan janubga — Semipalatinskka, undan keyin Turkiston-Sibir temir yo'li orqali Olmota (Almati), Frunze (Bishkek), Chimkent va undan keyingi punktlarga yetib olish mumkin edi.

Uchinchi yo'nalish - Yekaterinburgdan (o'sha paytda Sverdlovsk) Karaganda temir yo'li orqali Shimoliy va Markaziy Qozog'istonga - Akmola (hozirgi Nur-Sulton/Astana), Karaganda, Jezqazgan tomon yo'nalgan edi. Bu yo'l mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan, chunki o'sha paytda bu hudud bilan Markaziy Osiyoning boshqa qismlari o'rtasidagi aloqani faqat Transsibir temir yo'li orqali, keyin esa birinchi yoki ikkinchi yo'nalishlar orqali ta'minlash mumkin edi.

To'rtinchi yo'nalish shartli ravishda "janubiy" deb ataladi. Bu yo'l Maxachqal'a, Darbant yoki Bokudan dengiz orqali Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi) portiga, u yerdan esa Ashxobod va Toshkent temir yo'llari orqali ichki hududlarga olib borardi. Bu yo'nalish masofa bo'yicha eng qisqa

bo'lsa-da, vaqt jihatidan eng uzoq bo'lgan, chunki bir necha marta transport almashtirishni talab qilardi. Uning ahamiyati shundaki, aynan shu yo'l orqali Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonning eng rivojlangan hamda aholisi zich yashaydigan (shunday ekan, ko'p miqdordagi evakuatsiya qilinganlarni qabul qila oladigan) hududlariga to'g'ri yo'l ochilgan[17].

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, Kuban, Kavkaz va Zakavkazy aholisi uchun amalda yagona mumkin bo'lgan evakuatsiya yo'li aynan shu "janubiy" yo'nalish bo'lgan.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan Markaziy Osiyoga evakuatsiya qilingan aholi soniga oid tuzilgan statistik ma'lumotlar quyidagilarga asoslanadi:

- TSB(Markaziy statistika byurosi)ning "SSSR shaharlariga evakuatsiya qilingan aholi soni to'g'risida", 1941-yilning II yarim yilligida aholining mexanik harakati asosida tuzilgan umumiy hisobotiga [7].

- SSSR XKS huzuridagi Ko'chirish boshqarmasining "Evakuatsiya qilingan aholi bo'yicha oylik yig'ma ma'lumotlari"ga[8].

Bu manbalar asosan 1941-yil noyabr–dekabr oylariga tegishli. 1942 va 1943-yillarga oid ma'lumotlarni topishning imkoni kam - hozirgi kunga qadar SSSR mintaqalari bo'yicha aholining mexanik harakati haqida umumiy ma'lumotlarga saqlangan, biroq aynan shu ma'lumotlarga tayanib qolish xato bo'ladi.

1942-yilda va undan keyin kelganlar sonini faqat taxminan baholash mumkin. Buning uchun G'arbiy Sibir bo'yicha ma'lumotlar ekstrapolyatsiya qilinadi[14], ya'ni 1941 va 1942-yillardagi evakuatsiya jarayonlari hamda evakuatsiya qilinganlarni hududlar bo'yicha joylashtirish tamoyillari o'xshash bo'lgan deb faraz qilinadi. G'arbiy Sibir misolida 1941-yilda kelganlar soni 1942-yildagidan ikki baravar ortiq bo'lgan.

G'arbiy Sibirni "boshlang'ich nuqta" sifatida olishning sababi - uning geografik joylashuvi: Sibir va Markaziy Osiyo SSSRning markaziy va g'arbiy hududlaridan taxminan bir xil masofada joylashgan.

Shunday qilib, hisob-kitoblarga ko'ra, jami Markaziy Osiyoga taxminan 690 ming kishi evakuatsiya qilingan, shundan:

- 460 ming nafari 1941-yilda,
- 230 ming nafari 1942-yilda yetib kelgan[17].

Keyingi asosiy savol - mavjud statistik ma'lumotlar qanchalik ishonchli? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, Markaziy statistika boshqarmasi evakuatsiya qilingan fuqarolar soni haqidagi ma'lumotlarni qanday yig'ganini tushunish zarur.

Aholining mexanik harakati bo'yicha ma'lumotlar an'anaviy ravishda joriy hisob materiallariga asoslanardi. Urush boshlanishi bilan migratsiya jarayonlarining jadallashuvi statistik hisob tizimini izdan chiqardi: mavjud statistika apparati aholi harakatini o'z vaqtida qayd etishga

qodir bo'lmay qoldi. Bundan tashqari, urush sharoitida ma'muriy tartib-qoidalar va hujjat yuritish jarayonlari ko'p hollarda buzilgan - natijada ayrim ko'chganlar umuman statistikadan chetda qolgan.

Masalan, 1941-yilning yozida evakuatsiya qilingan aholi ortilgan ko'plab eshelonlar yo'lovchilari orqa hududlarga ro'yxatsiz va aniq manzilsiz harakatlanardi [15.Varaq.10]. Shuningdek, 1941-yilning kuzigacha "evakuatsiya qilingan fuqaro" tushunchasining o'zi ham aniq belgilab berilmagan. 1941-yilning noyabriga kelib tashkillashtirilgan evakuatsiya qilingan aholining hisob tizimi yo'lga qo'yildi, biroq undan oldin kelganlarni to'liq qayd etish imkonsiz edi.

Shu bilan birga, statistika tizimi avvalo tashkillashtirilgan aholini qayd etgan. O'z hududini mustaqil tark etgan yoki mustaqil tarzda orqa frontga kelgan "qochqinlar" esa ko'pincha o'zlarini "evakuatsiya qilingan" deb tan olishni istamagan. Bir tomondan, bu maqom ularga ba'zi imtiyozlarni bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, evakuatsiya jarayoni asosan sanoat va shahar aholisiga mo'ljallangan bo'lib, ularni ko'pincha shaharlarga joylashtirish talab qilingan. Bu esa shaharlarda odamlar sonining haddan tashqari oshishiga olib kelgan.

Aholini joylashtirish muammosi turli yo'llar bilan hal etilgan:

- yangi uylar qurish,
- moslashtirilmagan binolarni yashash uchun tayyorlash,
- mavjud uylarni zichlashtirish,
- ba'zi aholining qishloqlarga ko'chirilishi[15. 10-varaq].

Shu sababli, tashkillashtirilmagan tarzda orqa hududlarga kelgan fuqarolar ko'pincha o'z maqomini yashirgan, chunki ular qishloqqa jo'natib yuborilishidan qo'rqishgan.

Natijada, Markaziy statistika boshqarmasining jadval va ko'chirish ma'lumotlarida berilgan raqamlar ko'p jihatdan hisob-kitob yo'li bilan aniqlangan bo'lib, ular haqiqiy statistik raqamlarni to'liq aks ettirmaydi. Turli mintaqalarda evakuatsiya ro'yxati xato darajasi turlicha bo'lgan[11.B.81]. Ammo 1941-yil sharoitida umumiy statistik holat tahlil qilinganda evakuatsiya qilinganlar bo'yicha raqamlar 15–25 % gacha kam qayd etish holati mavjud bo'lgan.

Bunga misol sifatida, 1942-yil 21-yanvardagi Qirg'iziston SSR statistika boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi I.P. Pasxaverning hisobotini keltirish mumkin. 1942-yil 20-yanvar holatiga ko'ra, Frunze viloyatida evakuatsiya qilinganlarning haqiqiy soni 44 115 kishi deb aniqlangan, holbuki joriy hisob ma'lumotlari atigi 35 795 kishini qayd etgan[9. 5-varaq]. Demak, statistik hisobdan chetda qolganlar soni 8 320 kishi, ya'ni deyarli 19 % ni tashkil etgan. O'zbekiston SSRda Hisob-ma'lumot byurosining 1942-yil 7-fevral holatidagi ishlari to'g'risidagi hujjatda quyidagicha bo'lgan[3. 4-varaq]:

Toshkent evakuatsiya punktining 1942-yil 20-yanvar holatidagi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston SSRga kelgan evakuatsiya qilingan aholi 734 980 kishi sifatida qayd etilgan.

Evakuatsiya qilinganlarga oid nomma-nom ro'yxatlar esa Hisob-ma'lumot byurosiga atigi 144 108 kishi bo'yicha kelib tushgan. Ularning aksariyati eski 2-shakl bo'yicha tuzilgan, yangilangan shakl bo'yicha esa bor-yo'g'i 1554 kishi uchun ro'yxat tuzilgan.

Hisob-ma'lumot byurosining shtatida 1942-yil 1-yanvarga qadar olti nafar statistik hodim bo'lgan bo'lib, ular tomonidan 93 375 nafar evakuatsiya qilinganlar bo'yicha kartochkalar tuzilgan va kartoteka yuritilgan. Bu esa evakuatsiya qilinganlarning umumiy sonining atigi 11 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 5-yanvardagi 117-r son farmoyishi hamda Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi boshlig'ining joriy yil 27-yanvardagi taklifiga binoan, hech bir istisnosiz barcha evakuatsiya qilinganlar uchun yangilangan 2-shakl bo'yicha ro'yxatlar tuzilishi shart hisoblanadi. Shu tariqa, Hisob-ma'lumot byurosining eng muhim va asosiy vazifasi - joriy yil 15-martga qadar barcha viloyat ijroqo'mlaridan yangilangan 2-shakl bo'yicha evakuatsiya qilinganlarning nomma-nom ro'yxatlarini olish hamda ushbu ro'yxatlar asosida to'liq kartotekani tuzishdan iborat. Mazkur ishni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston SSR XKS 1942-yil 20-yanvardagi 74-son qarori bilan viloyat, shahar va tuman ijroqo'mlariga 2-shakl bo'yicha ro'yxatlarni tuzish uchun partiya-sovet va komsomol faollarini jalb qilish huquqini bergan, shuningdek bu ishni amalga oshirishning muddati va shaxsiy mas'uliyatini tuman ijroqo'mi raislari zimmasiga yuklagan.

Panfilov tomonidan barcha evakuatsiya qilingan aholining har bir ma'muriy birlik (kolxoz, posyolka, qishloq kengashi va h.k.) bo'yicha to'liq qayta ro'yxatga olish to'g'risidagi telegraf ko'rsatmasi olinganidan so'ng, O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR XKS 1942-yil 2–20-fevral kunlari bu borada Obkomlar, Obli-spolkomlar, tumanga partiya qo'mitalari va tuman ijroqo'mlariga telegraf ko'rsatmalar yuborgan. Bunda ushbu ishni o'rganish va nazorat qilish uchun SSSR Davlat reja qo'mitasi huzuridagi Markaziy statistika boshqarmasi (TSU) inspektorlarini jalb etish topshirilgan. O'zbekiston SSR bo'yicha Evakuatsiya boshqarmasi vakili tomonidan Markaziy statistika boshqarmasi (TSU) bilan hamkorlikda evakuatsiya qilingan aholining hisobini va qayta hisobini yuritish tartibi bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilgan hamda hududlarga yuborilgan. Kelgusi 2–3 kun ichida O'zbekiston SSRning barcha viloyatlariga Evakuatsiya boshqarmasi vakili apparati xodimlari jo'natilib, ularga tumanlarning barchasida eng qisqa muddatda nomma-nom hisobni tashkil etish vazifasi topshirilgan.

Hisob-ma'lumot byurosining ikkinchi vazifasi - evakuatsiya qilinganlar joylashgan manzil bo'yicha kelib tushgan so'rovlarga javob berishdan iborat. Ushbu ish boshlangandan buyon, ya'ni 1941-yil avgustidan 1942-yil 30-yanvargacha, Hisob-ma'lumot byurosiga 28126 ta so'rov kelib tushgan.

Bundan tashqari:

•O‘zbekiston SSR viloyat ijroqo‘mlari tomonidan Toshkent shaharidan 1000 ta so‘rov byuroga topshirilgan;

•1942-yil 28-yanvarda Toshkent shahar Ijroqo‘mining Obodonlashtirish boshqarmasi huzuridagi Ma’lumotnoma-axborot kontoridan yana 14 700 ta so‘rov yuborilgan.

Shunday qilib, 1942-yil 30-yanvar holatiga ko‘ra Hisob-ma’lumot byurosiga jami 52 896 ta so‘rov kelib tushgan bo‘lib, ulardan atigi 5 008 tasiga javob berilgan.

So‘rovlarga o‘z vaqtida javob berilmasligining sabablari quyidagicha:

1.Byuro xodimlarining yetarli emasligi;

2.Kartoteka hali to‘liq tuzilmaganligi tufayli, tekshiruvlar ko‘p hollarda ijobiy natija bermagan.

Masalan, berilgan 5 008 ta javobning atigi 4 foizi ijobiy (aniq manzil topilgan) bo‘lgan.

Barcha evakuatsiya qilinganlar bo‘yicha to‘liq nomma-nom ro‘yxatlar olinib, yagona kartoteka tuzilmaguncha, so‘rovlarga javob berish qisman tartibda amalga oshiriladi, ya’ni:

•Frontda bo‘lgan armiya bo‘linmalari so‘rovlari;

•harbiy xizmatchilar so‘rovlari;

•muassasa va korxonalarning jamoaviy so‘rovlari;

•telegraf orqali yuborilgan shoshilinch so‘rovlarga ustuvorlik beriladi.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, Hisob-ma’lumot byurosi shtatini kengaytirishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, kartoteka to‘liq tuzilguncha so‘rovlarga ishlov berishni vaqtincha to‘xtatib turish maqsadga muvofiq deb hisoblangan.

Bu choralar:

•kelgusida so‘rovlarga to‘liq va aniq javoblar berishga,

•kartoteka kengayishi bilan bir so‘rovni qayta-qayta tekshirishning oldini olishga imkon beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni O‘zbekiston SSR bo‘yicha Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi vakili Levshin 1942-yil 3-fevralda o‘z muhri bilan tasdiqlagan[3.Varaq.5].

Mamlakatning orqa hududlariga kelganlarning aniq sonini belgilash maqsadida 1942-yil 1–5-yanvar kunlari evakuatsiya qilingan fuqarolarni to‘liq qayta ro‘yxatga olish to‘g‘risida qaror qilindi. Afsuski, Markaziy Osiyo respublikalari statistik organlari bunday ishni sifatli amalga oshirish uchun zarur resurslar bilan to‘laqonli ta’minlanmagan edi. Natijada 5-yanvarga qadar qayta ro‘yxatga olish orqali evakuatsiya qilingan aholining atigi 25 foizi qamrab olindi[9. 10-varaq].

Buning bir qator sabablari bor edi:

- avvalo hisob varaqalari yetishmasdi;

- varaqalar chop etilgach, ularni aholi punktlaridagi hisob yurituvchilarga yetkazishda muammolar yuzaga keldi;

- hisobchilar malakasining pastligi ko'plab xatolarga olib kelar, bu esa varaqalarni qayta to'ldirishni talab qilardi;

- varaqalar (va ularni to'ldirish bo'yicha yo'riqnomalar) faqat rus tilida bosilgan edi, holbuki qishloq joylarida "ko'pincha na qishloq kengashi kotiblari, na tuman inspektorlari rus tilini bilardi" [10. 17-varaq].

Natijada, qayta ro'yxatga olish muddati Qirg'iziston va Qozog'iston SSRda 15-martga, O'zbekiston SSRda esa 15-mayga surildi. Shunday qilib, evakuatsiya qilingan aholining hisobini yuritish amalda izdan chiqdi — urush sharoitida aholi alohida viloyatlar ichida ham, ular orasida ham faol harakatlanar edi, ro'yxatga olish muddatining cho'zilishi esa uning aniqlik darajasini keskin pasaytirardi[16.12-bet]. Bu muammo evakuatsiya qilingan aholini qabul qilgan SSSRning aksariyat orqa front hududlarida kuzatilgan edi. Biroq Qozog'iston va O'zbekiston SSRda vaziyat bundan ham og'ir bo'lgan - bu haqda SSSR Davlat reja qo'mitasi (Gosplan) huzuridagi Markaziy statistik byuro boshlig'i V.N. Starovskiy Evakuatsiya kengashi rahbari N.M. Shvernikka yozgan xatida qayd etadi. U mazkur ikki mintaqani evakuatsiya qilingan aholining hisobini yuritish bo'yicha eng sust va eng noaniq natijalarni ko'rsatgan hududlar sifatida ta'riflagan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki: Birinchidan, urushning dastlabki oylarida evakuatsiya qilingan aholini ro'yxatga olish tizimi hali shakllanish bosqichida edi. Aholini ro'yxatga olish, tashish tartibi, ularni yo'l davomida zarur vositalar bilan ta'minlashga oid hukumat qarorlari ommaviy ravishda buzilgan, mavjud hisob organlari aholi ko'chishining keskin ortgan hajmiga bardosh bera olmagan. Bu esa Markaziy Osiyoga evakuatsiya qilingan aholi soni bo'yicha statistik ma'lumotlarning noaniq bo'lishiga olib kelgan. Bularni, shuningdek, evakuatsiya qilingan aholining qayta ro'yxatga olinishi jarayonidagi xatolar bilan qo'shib o'rganar ekanmiz, ko'chganlar sonini aniqlashda qayta hisob-kitob usullaridan foydalanish zarurligi ayon bo'ladi.

Ikkinchidan, Evakuatsiya jarayonidagi qiyinchiliklarga qaramay, 1941-1942-yillarda O'zbekiston ko'plab aholini o'z bag'riga qabul qilib oldi. Mahalliy millat aholisi evakuatsiya qilingan aholiga yordamini ayamadi.

Uchinchidan, "shimoliy" - Qozog'istonga olib boruvchi, va "janubiy" - O'zbekistonga yo'naltirilgan yo'nalishlarning ahamiyati bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Biroq shimoliy yo'nalish biroz ustunlikka ega edi, chunki aholini tashish jarayoniga ob-havo sharoitlari janubiy yo'nalishga qaraganda kamroq ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA). Fond-864. Ro'yxat-1. Ish № 1.
- 2.O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA). Fond R-864. Ro'yxat 1. Ish № 3.
- 3.O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA). Fond R-864. Ro'yxat 1. Ish № 4.
- 4.O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA). Fond R-837. Ro'yxat 32. Ish № 2787.

5. Toshkent shahar markaziy davlat arxivi. Fond F-314. Ro'yxat 1. Ish № 37.
6. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (ГАРФ). Fond. 6822. Ro'yxat. 1. Ish №. 422.
7. Rossiya davlat iqtisodiyot arxivi (РГАЭ). Fond 1562. Ro'yxat 20. ish 248.
8. Rossiya davlat iqtisodiyot arxivi (РГАЭ). Fond 1562. Ro'yxat 20. ish 249.
9. Rossiya davlat iqtisodiyot arxivi (РГАЭ). Fond 1562. Ro'yxat 20. ish 316 .
10. Rossiya davlat iqtisodiyot arxivi (РГАЭ). Fond 1562. Ro'yxat 20. ish 338.
11. Беленко М.П. Источники по численности гражданского населения, эвакуированного в Западную Сибирь в годы Великой Отечественной войны // Гуманитарные науки в Сибири. 2019. № 2.
12. Белоносов И.И. Эвакуация населения из прифронтовой полосы в 1941–1942 гг. // Эшелоны идут на Восток. Из истории перебазирования производственных сил СССР в 1941–1942 гг. Сборник статей и воспоминаний. М.: Наука, 1966.
13. Советское военно-политическое руководство в годы Великой Отечественной войны: сборник документов / сост. Л. П. Кошелева, Л. А. Роговая, О. В. Хлевнюк. М.: Фонд «Связь эпох», 2020.
14. Беленко М.П. Эвакуированное гражданское население в Западной Сибири: социально-демографический аспект (1941–1943 гг.), [Текст]: дисс. ... канд. ист. наук: 07.00.02: защищена 10.10.11: утв. 20.07.12.
15. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (ГАРФ). Fond. 6822. Ro'yxat. 1. Ish №. 406.
16. Исупов В.А. К вопросу о типах миграций и их соотношении в годы Великой Отечественной войны // Гуманитарные науки в Сибири. 2016. № 1.
17. Беленко, Михаил Павлович. «Эвакуация гражданского населения в среднеазиатские республики СССР в годы Великой Отечественной войны». Журнал по истории и археологии, 2019.